

“O‘z vaqtida to‘lang va yutib oling” aksiyasini o‘tkazish QOIDALARI

1. Общие положения

1.1. Mazkur Qoidalar “O‘z vaqtida to‘lang va yutib oling” aksiyasini (keyingi o‘rinlarda – Aksiya) InFinBank AJ tomonidan tashkil etish tartibi, shartlari va muddatlarini belgilaydi.

1.2. Aksiyani o‘tkazish davri: **2026 yil 1 apreldan 2027 yil 31 martgacha.**

1.3. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida InFinBank AJ bank tizimida o‘tkaziladi.

1.4. Mazkur Qoidalarda quyidagi ta‘rif va atamalar qo‘llaniladi:

Bank — Invest Finance Bank Aksiyadorlik jamiyati bo‘lib, aksiya tashkilotchisi hisoblanadi.

Ishtirokchi — O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan, 18 (o‘n sakkiz) yoshga to‘lgan, Bank mijosi hisoblangan jismoniy shaxs bo‘lib, bir vaqtning o‘zida mazkur Qoidalarning barcha shartlariga muvofiq bo‘lishi kerak, jumladan:

- Bank tomonidan chiqarilgan amaldagi bank mahsulotining (InFinBLACK kredit kartasi yoki InFinBARAKA muddatli to‘lov kartasi) mavjudligi;
- tegishli mahsulot bo‘yicha kamida 2 (ikki) oy kredit tarixining mavjudligi;
- InFinBLACK yoki InFinBARAKA kartasidan foydalanib, tegishli bank mahsuloti funksiyalari doirasida kamida bitta naqd pulsiz operatsiya amalga oshirilgan bo‘lishi, jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda: tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun naqd pulsiz to‘lov operatsiyalari, pul mablag‘larini o‘tkazishlar, shuningdek hisobot davri davomida karta orqali mavjud bo‘lgan boshqa operatsiyalar;
- 30 (o‘ttiz) kalendar kun va undan ortiq muddatga kechiktirilgan qarzdorlikning mavjud emasligi;
- mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan boshqa shartlarning bajarilishi.

G‘olib — mazkur Qoidalarga muvofiq belgilangan talablarga binoan aksiya barcha ishtirokchilari orasida g‘olib deb topilgan aksiya ishtirokchisi.

Super sovrin –BYD Yuan Up avtomobili.

Sovrinlar – Iphone 17 Pro Max, Ipad A16, AirPods 4.

Shaxsni tasdiqlovchi hujjat — O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi pasporti, harbiy xizmatchilar uchun harbiy guvohnoma, ID-karta, xorijga chiqish uchun biometrik pasport, yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasi.

Shaxsga doir ma‘lumotlar — elektron, qog‘oz va (yoki) boshqa moddiy tashuvchilarda qayd etilgan hamda Ishtirokchiga taalluqli yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan axborot.

Imkoniyat — Aksiya shartlari bajarilganda Ishtirokchiga beriladigan, Aksiyada ishtirok etishning shartli birligi bo‘lib, faqat Bankning ichki axborot tizimlarida hisobga olinadi.

Bankning ichki tizimlari — Bankning mijozlar, operatsiyalar va Aksiyani o‘tkazish maqsadlari uchun foydalaniladigan boshqa parametrlar haqidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan avtomatlashtirilgan axborot tizimlari. Mazkur tizimlardagi ma‘lumotlar yakuniy hisoblanadi va e‘tiroz qilinmaydi.

1.5. Mazkur Aksiya lotereya, totalizator yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yin hisoblanmaydi hamda bank mahsulotlaridan foydalanishni rag‘batlantirish maqsadida o‘tkaziladi.

2. Aksiya ishtirokchilari

2.1. Aksiyaning ishtirokchilari deb Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi Bankning rasmiy sahifasiga obuna bo‘lgan hamda mazkur Qoidalarda belgilangan “Ishtirokchi” tushunchasiga mos keladigan shaxslar, barcha ishtirok etish mezonlariga rioya qilgan taqdirda, e’tirof etiladi. Ishtirokchi maqomi faqat Bankning ichki axborot tizimlari ma’lumotlari asosida aniqlanadi.

2.2. Bank xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari aksiyada ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

3. Aksiyada ishtirok etish shartlari

3.1. Aksiyada ishtirok etish uchun Instagram ijtimoiy tarmog‘ida Bankning rasmiy sahifasiga obuna bo‘lish, InfinBLACK kredit kartasi yoki InfinBARAKA muddatli to‘lov kartasi egasi bo‘lish, ushbu kartalar bo‘yicha kamida 2 (ikki) oy kredit tarixiga ega bo‘lish, mazkur kartalar yordamida kamida 1 (bitta) tranzaksiya amalga oshirish hamda 30 va undan ortiq kalendar kun kechiktirilgan qarzdorlikka ega bo‘lmaslik zarur.

3.2. Mazkur Qoidalarning 3.1-bandida ko‘rsatilgan barcha shartlarning har bir kalendar oyida bajarilishi Ishtirokchiga 1 ta imkoniyat beradi. Imkoniyatlar jamlanib boruvchi tizim asosida hisoblanadi. Aksiya davomida bitta mijozga berilishi mumkin bo‘lgan maksimal imkoniyatlar soni 12 (o‘n ikki) ni tashkil etadi.

3.3. 30+ kechiktirilgan qarzdorlik deganda mijozning Bank oldidagi kredit majburiyatlari bo‘yicha 30 va undan ortiq kalendar kun davomida so‘ndirilmagan qarzdorlik mavjudligi tushuniladi va bu holat Bankning hisob tizimlarida qayd etiladi.

3.4. Mazkur Aksiya doirasida InfinBLACK kredit kartasi yoki InfinBARAKA muddatli to‘lov kartasidan foydalanish deganda Ishtirokchining tegishli hisobot davrida karta orqali bank mahsulotining funksiyalarida nazarda tutilgan har qanday operatsiyalarni amalga oshirishi tushuniladi, jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda: tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun naqd pulsiz to‘lov operatsiyalari, pul mablag‘larini o‘tkazishlar, shuningdek karta orqali mavjud bo‘lgan boshqa operatsiyalar.

3.5. Ijobiy kredit tarixi — qarz oluvchi tomonidan kreditlar va muddatli to‘lovlar bo‘yicha majburiyatlarning o‘z vaqtida va to‘liq bajarilganligini, kechikishlar hamda shartnoma shartlarining buzilishlari mavjud emasligini tasdiqlovchi ma’lumotlar yig‘indisidir.

3.6. Agar mijozda Aksiya o‘tkazilayotgan davr mobaynida istalgan vaqtda 30 (o‘ttiz) kalendar kun va undan ortiq muddatli kechiktirilgan qarzdorlik (30+) yuzaga kelsa, u holda mijoz: Aksiya ishtirokchilari ro‘yxatidan chiqariladi; ilgari to‘plangan imkoniyatlar sonidan qat’i nazar, sovrinlar o‘yinida ishtirok etish huquqini yo‘qotadi.

3.7. Mijozga 30+ kunlik kechiktirilgan qarzdorlik yuzaga kelguniga qadar berilgan imkoniyatlar bekor qilinadi va qayta tiklanmaydi.

3.8. Kechiktirilgan qarzdorlikning mavjudligi yoki mavjud emasligi Bank tomonidan ichki hisob tizimlari ma’lumotlari asosida baholanadi.

3.9. Bitta Ishtirokchi butun Aksiya davomida faqat bitta sovrin olishi mumkin.

3.10. Sovrinni olish uchun Aksiya ishtirokchisi mazkur Qoidalarga muvofiq o‘z zimmasiga yuklatilgan barcha talablarni Aksiya o‘tkazilayotgan muddat davomida, sovrinni olganligini tasdiqlovchi hujjatlar imzolangan qadar bajarishi shart.

3.11. Super sovrinlar o‘yini 12 kalendar oy davom etadi. Har uch oyda Bankning Instagram dagi korporativ sahifasida jonli efirda tasodifiy tanlov (random) asosida bitta g‘olib aniqlanadi, xususan: birinchi o‘yin 2026 yil 10 iyul gacha; ikkinchi o‘yin 2026 yil 10 oktyabr gacha; uchinchi o‘yin 2027 yil 10 yanvar gacha; to‘rtinchi o‘yin 2027 yil 10 aprel gacha o‘tkaziladi. Jami 4 ta super sovrin o‘ynaladi: 4 ta BYD Yuan Up avtomobili.

3.12. Sovrinlar o‘yini 12 kalendar oy davom etadi. G‘oliblar har oy Bankning Instagram dagi korporativ sahifasida jonli efirda tasodifiy tanlov asosida aniqlanadi, ya’ni hisobot oyidan keyingi

oyning 10-sanasigacha. Har oy 3 nafar g'olib aniqlanadi. Jami 36 ta sovrin o'ynaladi: 12 ta iPhone 17 Pro Max smartfoni; 12 ta iPad A16 plansheti; 12 ta AirPods 4 simsiz quloqchilari.

3.13. Aksiyada ishtirok etish Ishtirokchilarning mazkur Qoidalar bilan to'liq roziligini anglatadi.

3.14. Bank bir tomonlama tartibda shaxsni Aksiyada ishtirok etishdan rad etish yoki Ishtirokchini Aksiyadan chiqarib tashlash huquqiga ega bo'lib, bunda sabablarni tushuntirish majburiyati yo'q. Jumladan, agar shaxsning vijdotsiz xatti-harakati, huquqdan suiiste'mol qilishi yoki mazkur Qoidalar shartlarini buzishi aniqlansa, u Aksiyadan chetlashtirilishi mumkin.

4. Sovrin jamg'armasi

4.1. Super sovrin — 4 ta BYD Yuan Up avtomobili.

4.2. Sovrinlar – 12 ta Apple Iphone 17 Pro Max smartfoni, 12 ta Apple Ipad A16 plansheti, 12 ta simsiz AirPods 4 quloqchilari.

4.3. G'olib sovrinni naqd pul bilan almashtirishni talab qilish huquqiga ega emas.

4.4. Sovrin g'oliblarining soliqlarini to'lash xarajatlari Bank hisobidan amalga oshiriladi. Sovrinni olish g'olibning ushbu bandeda nazarda tutilgan tartibda soliqlar Bank tomonidan to'lanishi mumkinligiga rozilik bildirganini anglatadi.

5. Aksiyani o'tkazish tartibi va sovrinlar o'yinining jarayoni

5.1. Sovrinlar o'yinida ishtirok etadiganlar mazkur Qoidalarga muvofiq bo'lgan shaxslar hisoblanadi.

5.2. G'oliblar 1-chi jadvaldagi grafik bo'yicha aniqlanadi, Bankning Instagram ijtimoiy tarmog'idagi korporativ sahifasida jonli efirda tasodifiy tanlov (random) asosida tanlanadi.

1-jadval

№	Hisobot davri	O'yin sanasi	Sovrinlar nomlanishi
1	01.04.26 – 30.04.26 yy	08.05.2026 yil	Iphone 17 Pro Max – 1 dona Ipad – 1 dona Airpods – 1 dona
2	01.05.26 – 31.05.26 yy	05.06.2026 yil	Iphone 17 Pro Max – 1 dona Ipad – 1 dona Airpods – 1 dona
3	01.06.26 – 30.06.26 yy	10.07.2026 yil	BYD Yuan Up – 1 dona Iphone 17 Pro Max – 1 dona Ipad – 1 dona Airpods – 1 dona
4	01.07.26 – 31.07.26 yy	07.08.2026 yil	Iphone 17 Pro Max – 1 dona Ipad – 1 dona Airpods – 1 dona
5	01.08.26 – 31.08.26 yy	04.09.2026 yil	Iphone 17 Pro Max – 1 dona Ipad – 1 dona Airpods – 1 dona
6	01.09.26 – 30.09.26 yy	09.10.2026 yil	BYD Yuan Up – 1 dona Iphone 17 Pro Max – 1 dona Ipad – 1 dona Airpods – 1 dona
7	01.10.26 – 31.10.26 yy	06.11.2026 yil	Iphone 17 Pro Max – 1 dona Ipad – 1 dona Airpods – 1 dona

8	01.11.26 – 30.11.26 yy	04.12.2026 yil	Iphone 17 Pro Max – 1 dona Ipad – 1 dona Airpods – 1 dona
9	01.12.26 – 31.12.26 yy	08.01.2027 yil	BYD Yuan Up – 1 dona Iphone 17 Pro Max – 1 dona Ipad – 1 dona Airpods – 1 dona
10	01.01.27 – 31.01.27 yy	05.02.2027 yil	Iphone 17 Pro Max – 1 dona Ipad – 1 dona Airpods – 1 dona
11	01.02.27 – 28.02.27 yy	05.03.2027 yil	Iphone 17 Pro Max – 1 dona Ipad – 1 dona Airpods – 1 dona
12	01.03.27 – 31.03.27 yy	09.04.2027 yil	BYD Yuan Up – 1 dona Iphone 17 Pro Max – 1 dona Ipad – 1 dona Airpods – 1 dona

5.3. Bank shaxsiy yozma muzokarlarda yoki Aksiya ishtirokchilari bilan boshqa aloqalarda ishtirok etmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi, faqat nizoli vaziyatlar yuzaga kelgan yoki sovrin berish holatlari bundan mustasno.

5.4. Bank o'z ixtiyoriga ko'ra mazkur Qoidalarga istalgan o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish huquqini saqlab qoladi, buning uchun o'zgartirishlar kuchga kirishidan 10 (o'n) ish kuni oldin www.infinbank.com saytida e'lon beriladi. Bank sovrinlar ro'yxatini yoki miqdorini, shuningdek, Aksiya muddatini o'zgartirish yoki kengaytirish huquqiga ega. Bank ishtirokchining aksiyada ishtirok etishi bilan bog'liq yuzaga kelgan zarar, xarajat va boshqa har qanday chiqimlarni qoplamaydi va kompensatsiya qilmaydi.

5.5. Bank sovrin egasiga yoki uchinchi shaxslarga sovrinni ishlatish davrida yetishi mumkin bo'lgan zarar, jumladan, sog'liq (hayot) va mol-mulkka yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlar uchun hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

5.6. Mazkur Aksiyani o'tkazish jarayonida yuzaga keladigan barcha nizolar va tushunmovchiliklar Bank va Ishtirokchi o'rtasida holislik va o'zaro hamkorlik asosida muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Rozilikka erishilmagan taqdirda, nizolar Bank joylashgan hududdagi sudga ko'rib chiqiladi.

5.7. Bank Randomus yoki shunga o'xshash tasodifiy sonlar beruvchi dasturlar yordamida asosiy g'oliblarni va qo'shimcha 3 (uch) ishtirokchini zaxira nomzodlar sifatida aniqlaydi, agar Asosiy g'olib sovrinni rad etsa yoki mazkur Qoidalarda belgilangan muddatda sovrinni olmasa. Bankning ichki tizimlaridagi ma'lumotlar g'oliblarni aniqlashda yagona ishonchli manba hisoblanadi va e'tirozlarisiz qabul qilinadi.

5.8. Agar asosiy g'oliblardan biri sovrinni rad etsa yoki 10 (o'n) ish kuni ichida qabul qilib olmasa, sovrin zaxira nomzodga beriladi, u Randomus yoki shunga o'xshash dastur orqali birinchi aniqlangan shaxs bo'ladi. Agar birinchi zaxira nomzod ham sovrinni rad etsa yoki muddatida olmasa, sovrin ikkinchi zaxira nomzodga o'tadi va shu tariqa davom etadi.

5.9. Agar nomzod sovrinni rad etsa yoki muddatida olmasa, Bank Komissiyasining qaroriga ko'ra, g'olibni muqobil aniqlash jarayoni mazkur bo'limning tegishli bandleri bo'yicha o'tkaziladi.

5.10. Agar muqobil aniqlash natijasida sovrin rad qilinish yoki muddatida olinmaslik sababli berilmasa, Bank sovrinni o'z ixtiyoriga ko'ra ishlatish huquqini saqlab qoladi.

5.11. G'oliblarning ismlari Bankning Instagram korporativ sahifasida jonli efirda e'lon qilinadi.

5.12. Aksiya shartlari buzilishi natijasida yuzaga kelgan oqibatlar uchun Bank javobgarlikni zimmasiga olmaydi.

5.13. Bank imkoniyatlarni aniqlashda soxta, bo'lingan, tranzit xarakterdagi yoki Aksiya doirasida haqiqiy tovarni (xizmat) sotib olmasdan foyda olishga qaratilgan operatsiyalarni hisobga olmaslik huquqiga ega.

5.14. 5.13-bandda ko'rsatilgan holatlar aniqlangan taqdirda, Bank ilgari berilgan imkoniyatlarni bekor qilish, Ishtirokchini Aksiyadan chiqarish va sovrin berishni rad etish huquqiga ega. Bankning bunday qarori yakuniy hisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi.

6. Sovrinlarni olish tartibi va muddatlari

6.1. G'olib Bank tomonidan sovrin yutgani jonli e'firda e'lon qilingan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida sovrinni olish maqsadida shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasi bilan Bankga tashrif buyurishi kerak.

6.2. Sovrinni G'olibga topshirish qabul qilish va topshirish dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi, u G'olib va Bankning vakolatli vakili tomonidan imzolanadi.

6.3. Bankning sovrinni G'olibga topshirishi bo'yicha majburiyatlari qabul qilish va topshirish dalolatnomasi imzolangan vaqtdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

6.4. Sovrin bo'yicha mulkchilik huquqi qabul qilish va topshirish dalolatnomasi imzolangan vaqtdan boshlab G'olibga o'tadi.

6.5. Sovrinni topshirish ommaviy tantanali tadbir shaklida, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarini jalb qilgan holda tashkil etilishi mumkin.

7. Aksiya ishtirokchilarini aksiyaning o'tkazilishi shartlari, vaqtincha to'xtatilishi yoki muddatidan oldin tugatilishi haqida xabardor qilish tartibi

7.1. Aksiya ishtirokchilarini uning o'tkazilishi shartlari va tartibi bilan tanishtirish Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasida reklama postlarini joylashtirish, Bank mobil ilovasi, ommaviy axborot vositalari va kontekst reklamalar orqali amalga oshiriladi.

7.2. Aksiya haqida batafsil ma'lumot va Qoidalar Bankning rasmiy korporativ veb-saytida joylashtiriladi: www.infinbank.com, "Yangiliklar" bo'limida.

7.3. Aksiya haqidagi batafsil ma'lumotni Bankning ishonch telefoni orqali ham olish mumkin: (+998 71) 202-50-60 va qisqa raqam 1214.

7.4. Agar aksiya muddatidan oldin tugatilsa, davomiyligi uzaytirilsa yoki Qoidalarga o'zgartirish kiritilsa, tegishli ma'lumotlar Bankning rasmiy korporativ veb-saytida: www.infinbank.com, "Yangiliklar" bo'limida 10 (o'n) ish kuni oldin e'lon qilinadi.

7.5. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiq, Ishtirokchi Bankga o'z shaxsiga doir ma'lumotlarini (maxsus shaxsiy ma'lumotlar bundan mustasno) Bank faoliyatini yuritish, mazkur Qoidalar shartlarini bajarish hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan boshqa maqsadlarda 5 (besh) yil davomida qayta ishlash va foydalanish uchun rozilik beradi. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

7.6. Aksiya g'oliblari sovrinni olish orqali, mazkur Qoidalarga muvofiq, Bankga o'z ism-sharifi, fotosuratlarini va boshqa shaxsiy ma'lumotlaridan (maxsus shaxsiy ma'lumotlar bundan mustasno) reklama maqsadlarida, hech qanday qo'shimcha haq to'lanmasdan foydalanishga rozilik bergan hisoblanadi.